
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 9

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 9

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Тилшуносликда миллат ассоциатив портретини аниқлаш методикаси..... 7

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH
Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida..... 12

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Uslub atamasining kelib chiqishi va uning til
taraqqiyotidagi turli davrlarda qo‘llanishi..... 15

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Darak gaplarda nutqiy akt tushunchasi 19

ABDULLAYEV DAVRONBEK
Lingvistik talqinda leksik ma’no o‘zgaruvi badiiy
nutqning daraja vositasi sifatida 22

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holat so‘zlari va ularning
olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati 25

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Filologik terminologiyaning mohiyati va xususiyatlari 30

НОРБОЕВА ДИЛАФРЎЗ ЖУМАҚУЛОВНА
Соҳавий терминлар ва уларнинг тил хусусиятлари 36

ISMOILOVA MAMLAKAT QURBONOVNA
Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining o‘rganilish tarixi 39

MENGLIYEVA MUNIRA
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli
lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari 42

МАМАСОЛИЕВ ИЛХАМ УБАЙДУЛЛАЕВИЧ
Приспособление иностранной лексики в русском языке
на основе материалов русскоязычных СМИ Узбекистана 46

МУНДАРИЖА

XODJIYEV YUSUF NORQULOVICH
O‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi 50

ALIMBEKOVA MAVJUDA XALIMJON QIZI
Fitrat korpusi lemmalarini avtomatik aniqlashda yuzaga kelgan muammolar 56

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Понятие и особенности литературного цикла 59

ТУРСУНОВА НАСИБА
Мотам маросими ва иримлар талқинига доир 63

DAVLATOVA SHAHNOZA MUHAMMADIYEVNA
Jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud
jarayonlari badiiy talqin etilgan asarlar tahlili 67

TANGIROV RO‘ZIBOY
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xarakterining badiiy ifodasi 69

QURBONOVA SARVINOZ GULBOYEVNA
Nodim Namangoniyning Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni 73

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FITRAT KORPUSI LEMMALARINI AVTOMATIK ANIQLASHDA YUZAGA KELGAN MUAMMOLAR

Alimbekova Mavjuda Xalimjon qizi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Axborotni raqamlashtirish har bir soha uchun ahamiyatli bo'lib bormoqda. Adabiyot, ta'lim, tilshunoslik sohalari ham shular jumlasidandir. Mualliflik korpuslarini yaratish shoir, yozuvchilar asarlari tilini, ularning uslubini tadqiq etish, mualliflik lug'atlarini yaratish, so'z qo'llash chastotasini aniqlash, frazeologik birliklar lug'atini shakllantirish kabi tadqiqotlarni amalga oshirishda ahamiyatlidir.

Mualliflik korpuslarini yaratishda Shekspir[1] asarlari korpusi bu turdagi keyingi yaratilgan korpuslar uchun namuna vazifasini o'taydi. Korpusda mukammal qidiruv tizimi, konkordans, asarlari haqida statistika, asar qahramonlari ro'yxati, Shekspir nashrlari, korpus yaratilishi tarixi haqida kabi bo'limlarni ko'rish mumkin. Rus tilshunosligida Pushkin, Chexov[2], Dostoyevskiylarning[3] mualliflik korpuslari tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlarga qulaylik yaratib, mualliflik lug'atlari, chastotali lug'atlar yaratilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Bularga Pushkin she'rlari konkordansi[4], Dostoyevskiyning publitsistikasi bo'yicha yaratilgan chastotali lug'at konkordansi[5], Chexov badiiy asarlari tilining chastotali grammatik-semantik lug'ati[6], Sergey Yesenin sheriyati bo'yicha yaratilgan chastota-semantik konkordans[7] kabi bir qator leksikografik tadqiqotlarni misol qilish mumkin. Tojik tili milliy korpusi tarkibidagi Rudakiy korpusi[8] razmetkalanmagan bo'lsa-da, tadqiqotchilar uchun ushbu ijodkor me'rosini o'rganishda ulkan manba vazifasini o'taydi. Ushbu korpus haqida o'zbek korpusshunosi Sh. Hamrayeva shunday deydi: "Korpus asosini buyuk shoirning asarlari matni tashkil etgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida Rudakiy g'azallari matni bo'yicha bir nechta lug'at tuzilgan. Chastotali lug'at, kamayish, ortib borish alifbo chastotali lug'ati, Rudakiy ijodi matnlari ters lug'atlari shular jumlasidan"[9].

O'zbek korpusshunosligida Sh.Hamrayeva Abdulla Qahhor mualliflik korpusi[10]ni, N.G'ulomova "Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning semantik teglangan bazasini yaratish ("Badoye ul-vasat" devoni asosida)" nomli tadqiqot ishi[11]ni yaratib korpus lingvistikasi taraqqiyotiga hissa qo'shdi. Shuningdek, Alisher Navoiy mualliflik korpusi[12] bu sohadagi kelgusi ishlarga namuna vazifasini o'tamoqda. Yaratilayotgan bu kabi tadqiqotlar tajribasini o'rgangan holda Abdurauf Fitrat asarlari korpusini yaratish XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmida yashagan ijodkorlar tilini tadqiq etishni qulaylashtiradi.

Abdurauf Fitrat asarlari korpusini tuzishni uning hozirda o'zbek tilida nashr etilgan, bizga ma'lum bo'lgan asarlari[13]ni yig'ishdan boshladik. Dastlabki qadamda matn tayyorlanib, har bir gap bir satrga tenglashtirilgan, grafik, chizma, jadvallardan holi text formatiga keltirildi. Tayyorlangan matndan kichik korpus yaratildi. Korpus vositasida muallif asarlarining konkordansi va qo'llanilgan so'zshakl va lemmalar konkordansi avtomatik aniqlandi. Aniqlangan lemmalar qo'lda leksik qatlamlariga ko'ra teglab chiqildi. Keyingi qadamda aniqlangan ma'lumotlar statistikasi chiqarilib, tahlil qilindi.

[1] https://www.opensourceshakespeare.org/
[2] https://istina.msu.ru
[3] Rus tili milliy korpusi. Elektron resurs: http://www.ruscorpora.ru
[4] Library.sakharov-center.ru/vse…bl/…/konkordans-k-stikham-a-s-pushkina.html? Конкорданс к стихам А.С.Пушкина.
[5] Dostoevskij.karelia.ru/ Частотный словаръ-конкорданс публицистики Ф.М.Достоевского.
[6] www.philol.msu.ru/~lex/kiisa.html
[7] https://rucont.ru/efd400419. "Частотно семантический конкорданс служебных слов в поэзии Сергея Есенина".
[8] http://termcom.tj.
[9] Hamroyeva Sh.M. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. – Buxoro, 2018. – 179 b. – B. 67.
[10] Hamroyeva Sh.M. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. – Buxoro, 2018. – 179 b.
[11] G'ulomova N.S. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning semantik teglari bazasini yaratish ("Badoye' ul-vasat" devoni asosida). – Toshkent, 2022. – 190 b.
[12] http://navoiykorpusi.uz/
[13] Alimbekova M. Abdurauf Fitrat asarlar korpusi matnlarini to'plash va ularga dastlabki ishlov berish muammolari. // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar. – Toshkent, 2024. – B. 172-177. – 175 b.

Fitrat asarlari korpusi matnlarining konkordansi avtomatik tarzda shakllantirilgach, ularni leksik qatlamga ko‘ra teglash jarayonida noma’lum qatlamga oid birliklar mavjud ekani aniqlandi. Ularni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

1-jadval. **Fitrat asarlari konkordansida noma’lum birliklar**

Asar nomi	**Noma’lum qatlamga oid birliklar**	**Konkordansda bor, lekin korpus matnida mavjud bo‘lmagan so‘zlar**
“Abulfayzxon”	Qar, sa, siyon, so‘zan, husayni, rakaat, chiro, lik, mug‘, Pi, Xonnon, akas	mug‘
“Arslon”	ku, pishi, qar, emasmoq, yetin, av, bar, chiqit, dav, ekanmoq, haqla, havon, kov, kunun, oldimoq, qaran, uv, uxu, xir	Shaman, chiqit
“Shaytonning tangriga isyoni”	bizon, yal, ar, istam, g‘ur, haz, ih, ja, laq, lik, mah, qar, qiq, sing, tir	Bilga, yal, birinch
“Tilimiz I”	ar, bison, dong‘il, g‘a, ik,, ing, muk, o‘, o‘r, qar, si, so‘zan, ta, tir, zov	Bilga, mor
“Hiybat ul-haqoyiq”	ar, bar, bilang, birinch, bizon, chur, dag‘, dak, dir, doman, emasmoq, fa, g‘at, hu, id, ik, it, kal, ku, ma, mah, qat’, sa, o‘, si, siren, sun, tango, xi, yan	

Ushbu birliklar avtomatik aniqlangan lug‘at-konkordansda mavjud, ammo korpus matnida uchramaydi. Aniqlangan ushbu birliklarning ayrimlari korpusda umuman uchramaydi, ya’ni biror-bir so‘zshaklning qismi sifatida ham mavjud emas, ammo ko‘p qismi so‘zshaklning tarkibiy qismi, qo‘shimcha yoki bo‘g‘in holatida uchraydi.

So‘zning lemmasini avtomatik aniqlash jarayonida lemma va so‘zshakl, lemma va atoqli ot omonimlik hosil qilgan o‘rinlarda lemma korpus matnidagi ma’nosida emas, boshqa shaklda berilgan o‘rinlar kuzatildi. Masalan, konkordansda *qotishma* lemmasi berilgan, uning so‘z turkumi ot, ammo korpus matnida ot so‘z turkumiga oid *qotishma* so‘zi mavjud emas. *Sen o‘z ishingni ko‘ra ber, boshqalarg‘a qotishma, o‘g‘lim, og‘ir yuklarni ko‘tarolmaysan, beling sinib qoladi*. Ushbu gapdagi *qotishma* so‘zi *aralashma, qo‘shilma* ma’nolaridagi bo‘lishsiz shakldagi fe’ldir. Korpus matnida atoqli ot bo‘lib kelgan *Yarash* shaxs oti konkordansda *yarashmoq* shaklida berilgan. Korpus matnidagi *A’zam* shaxs oti konkordansda a’zam – sifat shaklida berilgan. *Qilich* atoqli oti ham konkordansda turdosh ot shaklida berilgan. *Ertamak – istamak* ma’nosidagi fe’lning o‘zagi *erta* ravishi bilan omonimlik hosil qiladi. *Ertamak* so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida va adabiy tilda iste’molda mavjud emasligi uchun konkordansga *erta* ravishi olingan.

Korpus *edi, ekan, emish, emas* to‘liqsiz fe’llarini ham lemma hisoblab *ekanmoq, emasmoq* shaklida lemma tarkibida bergan va konkordansda mavjud.

Fitrat ijodida uchraydigan *qatla* so‘zi marta ma’nosida qo‘llanilgan: *Shuning uchun har kun necha qatla mening yerlarimni bosib o‘tadir.* Konkordansda esa faqat fe’l shakli keltirilgan.

Korpus matnidagi lemmalarni avtomatik aniqlash jarayonida Fitrat ijodida mavjud aksar leksik birliklar tushib qolgan. Ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

atoqli otlar;

qadimgi va eski turkiy tilga oid so‘zlar;

fonetik jihatga ko‘ra adabiy tildan farqlanuvchi so‘zlar;

o‘zlashma so‘zlar;

Fitrat uslubiga xos bo‘lgan yasama so‘zlar;

she’riy misralardagi fors-tojikcha so‘zlar.

Fitrat ijodida uchraydigan atoqli otlarning ayrimlari konkordansda berilgan, ayrimlari esa tushirib qoldirilgan. Ular quyidagi jadvalda berilgan:

2-jadval. **Fitrat asarlaridagi atoqli otlarning konkordansda berilishi**

Asar nomi	Konkordansda keltirilgan atoqli otlar (NER)	Korpus matnida mavjud, konkordansda keltirilmagan atoqli otlar
“Abulfayzxon”	Buxoro, Eron, Kalon, Oxund, Balx, Eronga, Abulfayz, Sohibqiron, Hofiz, Botu, Jazoyir, Husayniy	Husaynxon, Yo‘ldosh, Karmina, Chorjo‘y, Kallaxona, Jiyanqul, Afrosiyob, Siyovush, Xisrav
“Arslon”	Norxol, Mansurboy, Botu, Boqi, Ahmad, Arslonboy, Ashur, G‘oyib, Sevar, Tursunbibi, Boymurod, Rajab, Rizo, Sharofatxon	To‘raqul, Tursun, Hasan, Botur, To‘lg‘un, Xayri, Navoiy, Oynuqsa, Yarash Rajab, Zaynab

“Shaytonning tangriga isyoni”	Jalol, Odamato, Azozil, Bilol,	Isrofil, Jabroil, Mikoil, Jalla,
“Tilimiz I”	Ali, Eron, Shohnoma	
“Hiybat ul-haqoyiq”	Ahmad, Ali, Alisher, Bag‘dod, Muhammad, Osim, Osiyo, Qarshi, Qashqar, G‘iyos, Samarqand, Sarfiy, Sipohsolor, Temuriylar	Boqirg‘on, So‘fiya, Najib Osimbek, Mahmud, Yugnakiy, Yugnak, Saljuqiy, Balqiyoruq, Habashiy, Oltuntoq, G‘aznaviy, Salar, G‘oziy, Rashid Votvot, To‘g‘rul, Qilich, Asfahsolorbek, Sayfi, Isfarangi, Qashg‘ar, pro‘fesso‘r, Ko‘prulizoda Fuod, Yuganak, Yuqnoq, Juvayniy, Yug‘noq, Banokat, Yog‘noq, Mo‘jam

Fitrat korpusi matnida mavjud, ammo lemmalarni avtomatik aniqlash jarayonida tushib qolgan, konkordansda berilmagan so‘zlar: *chog‘i, qo‘rchi, to‘qsoba, yilon, pilon, ko‘rkamlik, duxtaron, sufa, terazi, kulox, siralanmoq, dafchi, maxta, kenagas, mang‘it, fazilatliq, supurgu, og‘ulamoq, ishtiholiq, ko‘ma, darg‘a, xonliq, lo‘li, tug‘, neshlamoq, yonoshmoq, so‘lush chekmoq, yo‘la, o‘muz, yomonliq, armonlanmoq, tonug‘, boyog‘i, yoqo, sufra, bo‘yra, gapurmoq, yumruq, kuchlamoq, yozuq, qopchug‘, to‘ppi, ketman, sayg‘i, solug‘, yostanmoq, g‘ujunmoq, qutqormoq, mal’un, o‘salliq, oltun, havli, ujmox, og‘och, g‘ilmon, munkar-nakir, qabat, jinlanmoq, so‘fa, yasov, panalat, talosh, qulbachcha, o‘rgulmoq, yo‘luqmoq, yopuq, o‘tru, tunokun, rikob(uzangi), baror, qo‘ltug‘, nalat, ishkil, boturlik, sadag‘a, to‘zum, hij, qopqa, orinmoq, soiq, churumoq, ihtob, avsof, hulkar, ujuratlik, mahfuz, singurlanmoq, laqqum, dahi, kasrat, kalimat, singramoq, ingichkirmoq, yig‘lamsinmoq, o‘kurmoq, murur, ubur, o‘rxan, tosix, undirik, vus’at, ishtiqoq, yusup, mukammaliyat, yusupsizlik, istisnolilik, dong‘li, emkaymoq, qumruq, yolg‘uz, osig‘lanmoq, baxtsizliq, so‘yla, hashtot, qavoyid, sarfiya, kavokib, manor, sahob, zoviya, sobita, zanb, qumuch, anbiyo, haqqida, nat, tug‘a(tug‘mas), yari, manba’, butov, yig‘och, so‘ngak, ma’xaz, maxtamoq, churumoq, kahast, arsa, ftui, pro‘fesso‘r, o‘g‘noq, feo‘dal, chahoryor, e’tirofnoma, ochun, kazinli, kaligli, nonsuq, mavo‘iz, osig‘, hadiba, magiz, nav’, bilik, bilikli, so‘ngak, biliksizlik, qudi, iki, nang, kandi, yangshir, esh, saqin, nejama, inonjlik, sarmoq(chidab turmoq), kat(albatta), nangtin, teb, kucha, naluk, qadinki(keyingi), mutaqorib, maqsur, bo‘lum, faulun, faul, aydirim, alaviqh, alliym, ardam, nanak, ungin, sarib, nakunad, gizlamak, ertamak.*

Ushbu so‘zlar izohli lug‘atda, o‘zbek adabiy tilida uchramagani yoki imlo jihatdan farqli bo‘lgani sababli korpus lemmalarni avtomatik aniqlash jarayonida qoldirib ketgan. Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

Fitrat yashagan davrda hali adabiy til normalari, qoidalari to‘liq shakllanmagan, yaratilmaganligi va so‘zlarning fonetikasi, imlosi bugungi adabiy tildan farq qilganligi uchun *gapurmoq, to‘zum, o‘rgulmoq, yo‘luqmoq, yopuq, baxtsizliq*, *teb* kabi so‘zlar ko‘p uchraydi;

Fitrat uslubiga xos yasama so‘zlar: *neshlamoq, kuchlamoq, osig‘lanmoq, jinlanmoq, armonlanmoq, inonjlik* kabilar;

o‘zlashma so‘zlar: pro‘fesso‘r, *feo‘dal, kandi, sufa, pilon, so‘fa, mavo‘iz, nav’,sahob, zoviya, sobita, zanb* kabilar;

qadimgi va eski turkiy tilga oid: *og‘och, kucha, qopqa, quid, ochun, biliksizlik, bilikli, ujmox, yozuq, qopchug‘, tug‘a* kabi so‘zlar;

Fitrat asarlarida kelgan fors-tojikcha misralar va jumlalardagi so‘zlar: *“Furuxtam ba bay’i botiy, ba totiy shar’i chor tanob zamini korami haq va mulki xudamroki... ”.*

Xulosa qilib aytganda, ushbu muammolarning barchasi muallif tilining uslubiga, u yashagan davr tiliga oid bo‘lgan xususiyatlar bilan aloqadordir. Yuqorida keltirilgan lemmalarni korpusga yuklash va izohi tushunarsiz bo‘lgan so‘zlarni izohlash orqali bu muammoni bartaraf etish mumkin. Bu esa jadid namoyondalari ijodini, tili va uslubini korpus yordamida o‘rganish, mualliflik lug‘atlarini yaratishda qulaylikka erishishni ta’minlaydi.

Rezyume. Ushbu maqolada Fitrat mualliflik korpusi matnlarining konkordansida uchraydigan muammolar, noma’lum qatlamga oid birliklar va konkordansga kiritilmay tushirib qoldirilgan so‘zlarni aniqlash hamda buning sabablarini o‘rganib, ularga yechim topish masalalari yoritilgan.

Resume. In this article, the problems encountered in the concordance of the texts of the Fitrat authorship corpus, identifying words belonged to an unknown layer and the words that were not included in the concordance, as well as issues of finding solutions by studying the reasons for this are highlighted.

Резюме: В этой статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкивается конкорданс текстов авторского корпуса Фитрата, единицы, относящиеся к неизвестному слою, и выявление слов, опущенных без включения в конкорданс, а также изучение причин и поиск решений.